

№ 20476
2026 yil «19» «may»

Marketing departamentiga

94-sonli Yo‘l xaritasining 11-bandi hamda 65-bandi talablariga muvofiq, aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan qayta aloqa jarayonlarini tashkil etish hamda “Ishonch telefonlari” (Call-markazlar) orqali murojaatlarni qabul qilish ishlari yuzasidan quyidagilarni ma’lum qilamiz.

Hozirgi kunda bankning rasmiy veb-sayti orqali mijozlardan bank mahsulotlari bo‘yicha qayta aloqa (callback) uchun arizalar kelib tushmoqda va mazkur murojaatlar Aloqa markazi tomonidan muvaffaqiyatli qayta ishlanmoqda.

Xususan joriy yilning:

Yanvar oyida — 476 ta

Fevral oyida — 490 ta;

Mart oyida — 465 ta;


Aprel oyida — 427 ta;

May oyida bugungi kunga qadar — 486 ta murojaat qayta ishlangan.

Bundan tashqari, mijozlar bank rasmiy veb-saytining footer qismida joylashgan “Fikr bildiring” bo‘limi orqali ham o‘z murojaat va takliflarini qoldirish imkoniyatiga ega. Mazkur murojaatlar Aloqa markaziga elektron pochta orqali kelib tushadi hamda xodimlar tomonidan o‘z vaqtida ko‘rib chiqilib, qayta aloqa taqdim etib boriladi.

Shu bilan birga, mazkur murojaatlar bo‘yicha yagona va ishonchli hisob yuritilishini ta’minlash maqsadida, “Fikr bildiring” bo‘limi orqali kelib tushayotgan murojaatlarni ham CRM tizimlariga (FB CRM yoki A’lo CRM) yo‘naltirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Aloqa markazi direktori



A.Soliev

kelishuvchilar:

<https://hujjat.sqb.uz/?pin=IG24xM38&id=9b492d62-1672-4f60-a019-6b75dbfa836a>